

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada insonning komillikka erishuvi va jamiyat taraqqiyotida ta'lim hamda tarbiyaning ahamiyati ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi allomalar ilgari surgan pedagogik qarashlar hamda ularning hozirgi ta'lim tizimiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, G'arb faylasuflari Suqrot, Platon, Aristotel va Komenskiyning ta'lim-tarbiya borasidagi g'oyalari qiyosiy ko'rib chiqilib, umumiylik va farqli jihatlariga e'tibor qaratilgan. Maqolada ta'limning inson barkamolligi, ma'naviy-axloqiy hamda intellektual rivojlanishda tutgan muhim o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, G'arb mutafakkirlari, ta'lim, tarbiya, ma'rifat, axloq, ilm-fan, kamolot, pedagogik qarashlar.

IEWS OF EASTERN AND WESTERN THINKERS ON EDUCATION AND UPBRINGING

Mahmudova Niginabonu Mizrof kizi

**Student of the National Pedagogical University of Uzbekistan named
after Nizami**

Abstract. In this article, the importance of education and upbringing in achieving human perfection and the development of society is analyzed from a scientific and theoretical point of view. The pedagogical views of Eastern thinkers - Abu Ali ibn Sina, Abu Nasr Farabi, Beruni, Al-Khwarizmi, Yusuf Khos Hajib, Ahmad Yassavi, and their influence on the modern education system are highlighted. Also, the ideas of Western philosophers - Socrates, Plato, Aristotle, and Comenius on education and upbringing are comparatively considered, and

attention is paid to their commonalities and differences. The article substantiates the important role of education in human perfection, spiritual-moral and intellectual development.

Keywords: Eastern thinkers, Western thinkers, education, upbringing, enlightenment, morality, science, perfection, pedagogical views.

Inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun eng zarur vositalardan biri bu ta'lim va tarbiyadir. Qadimdan buyuk Sharq va G'arb mutafakkirlari yosh avlod tarbiyasi, ilmga rag'bat va odob-axloq masalalariga alohida e'tibor qaratib kelganlar. Ularning ilgari surgan qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yangi talablarga moslashib, o'ziga xos metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya sohasidagi qo'shgan hissalarini o'zgartiradi. Ushbu ishda Sharq mutafakkirlarining pedagogik fikrlari va uslublarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning zamonaviy ta'lim tizimiga tasiri ulkan osish va rivojlanishlarga sabachi bolib kelmoqda. Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya sohasidagi g'oyalari, asosan, ma'naviy va axloqiy rivojlanishni, jamiyatning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, insonning ma'naviy, axloqiy va intellektual o'sishini targ'ib qilish bilan birga, jamiyatni rivojlantirishda ta'limning muhim o'rnini ta'kidlaydi. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Burxoniddin Marg'inoniy kabi buyuk olimlar ta'lim va tarbiya prinsiplarini shakllantirgan, ularning fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularning qarashlari nafaqat o'z zamonasi uchun, balki hozirgi kun uchun ham katta ahamiyatga ega.

Sharqning buyuk siymolaridan biri, qomusiy olim, tabib faylasuf Abu Ali ibn Sino (980-1037-yillar) bo'lib, u Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino ham ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Buyuk bobomiz kamolotga

erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. "Ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qorqmasligi zarur,"- deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir. Zero, marifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi,"- deydi u fikrini davom ettirib.

Insonning haqiqiy kamoloti ilm va ma'rifatni egallash bilan chambarchas bog'liq. Chunki ilm odamni jasur, qat'iyatli va haqiqat izlovchi qiladi. Qiyinchilikdan qo'rqmagan, ilm yo'lida sobit qolgan insongina chinakam kamolot sari yuksaladi. Yana shunday ma'rifatparvar bobomiz Abu Nasr Farobiy (873-950-yillar) riyoziyot, falakiyot, taboabt, musiqa, mantiq, adabiyotshunoslik sohalarida ijod etgan. U 160dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan. Bu asarlar orasida "Arastuning metafizika asariga sharh", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Fozil odamlar shahri" asarlari muhim ahamiyatga ega.

Farobiy "Baxt – saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rganganidan so'ng, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Shundan keyin esa umuman, jonli tabiat – o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Farobiy shunday deydi:" Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribali pedagog – o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Buning uchun unga o'qituvchi lozim".

Farobiyning ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. Uning quyidagi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

"Fozil odamlar shahri"

"Baxt-saodatga erishuv to'g'risida"

"Ixso-al-ulum"

"Ilmlarning kelib chiqishi"

"Aql ma'nolari to'g'risida"

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048-yillar) X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy davrda yashagan va ijod etgan. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Ta'lim sohasidagi yuritgan fikrlari hali hamon yoshlarga dasturi amal bo'lib kelmoqda. Abu Rayhon Beruniy shunday degan: "O'quvchiga bilim berishda quyidgi mezonlarga amal qilish kerak:

- ✓ o'quvchini zeriktirmaslik;
- ✓ bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- ✓ tahlil qilish va taqqoslash;
- ✓ uzviylik, izchillik;
- ✓ ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish".

Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Darhaqiqat, insonda komillikning muhim me'zoni yuksak axloqlilikdir. Haqiqiy ilm faqat insonning qalbida poklik, halollik va axloqiy go'zallik mavjud bo'lgandagina natija beradi. Shu bois Beruniy ilm va tarbiyani bir butun holda ko'radi. Ya'ni, bilim insonni yuksaltirsa, axloq uni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Uning fikricha, bolalarga bilim berishda faqat matematika, tabiiy yoki til ilmlarini o'rgatish yetarli emas, balki

ularda halollik, odoblilik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini ham singdirish zarur. Shundagina ilm ma'naviyat bilan uyg'unlashib, insonni komillikka yetaklaydi.

“Sharq mutafakkirlari merosi ta'lim va tarbiya jarayonida beqiyos o'rin tutadi. Ana shunday mangu allomalardan biri Xoja Ahmad Yassaviy(1103-1166-yillar) bo'lib, u o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan pedagogika faniga katta hissa qo'shgan. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. “Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi”. Shuning uchun ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yana bir yirik allomalardan biri Burxoniddin Marg'inoniydir. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, imon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr xislatlari asosiy o'rinni egallaydi. Alloma Marg'inoniy o'zining axloqiyhuquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkining sultoni, o'zbek adabiyotining eng buyuk namoyandalaridan biri Alisher Navoiy (1441-1501-yillar) o'z asarlarida

insonni ma’rifat, axloq, ezgulik sari yetaklashni bosh maqsad qilib qo‘ygan. Uning ijodida ilm va tarbiya masalasi alohida o‘rin tutadi. Navoiy o‘zining butun faoliyatini xalq manfaati, ularning ta’lim-tarbiyasi yo‘lida safarbar etdi. U o‘z asarlari orqali yoshlarni ilm-ma’rifatga, odob-axloqqa, ezgu fazilatlar sari yetakladi. “Majolis un-nafois”, “Xamsa” (“Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”), “Nasoyim ul-muhabbat” kabi asrlar shular jumlasidandir.



Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq yetarli va to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish kerakligi, bu qanchalik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiliradi.

Shuningdek, “Devoni foniy” da shunday misralar keltiriladi:

Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi,

G‘ubori rohi piron to‘tiyo kun dar javoniho [3].

Ya’ni, ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug‘lar izi tuprog‘ini ko‘zingga to‘tiyo qil. Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo‘lish, ular suhbatidan o‘rganish insonni komillikka erishtiradi.

Sharq mutafakkirlari ta’lim va tarbiyani ajralmas jarayon deb bilgan, ularning g‘oyalari, fikrlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Sharq allomalari singari G‘arb mutafakkirlari ham inson tarbiyasiga va ta’lim masalalariga katta

ahamiyat bergan. Masalan, qadimgi yunon donishmandlari Platon, Suqrot va Aristotel kabi allomalar ta'limni insonni barkamollikka yetaklaydigan asosiy vosita sifatida talqin etganlar. Keyingi davrlarda esa Jan-Jak Russo, Yan Amos Komenskiy singari mutafakkirlar tarbiyaga yangicha g'oyalarni olib kirib, inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishga e'tibor qaratganlar.

Suqrot ta'lim jarayonida insonni fikrlashga va haqiqatni o'z aqli orqali topishga o'rgatishni maqsad qilib qo'ygan. U bilimni tayyor shaklda emas, balki savol-javob orqali berish tarafdori bo'lgan. Suqrot shunday degan: "Men faqat bitta narsani bilaman - u ham bo'lsa hech narsani bilmasligimni bilaman". Uning bu mashhur fikri insonni doimiy izlanishga va ilmni puxtaroq, chuqurroq o'rganishga undaydi. Shuningdek, u axloqiy tarbiyani ham bilimdan ajratmagan, chunki haqiqiy bilim faqatgina ezgu xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi kerakligini aytib o'tgan.

Qadimgi Gretsiyaning mashhur faylasuflaridan biri Platon bo'lib hisoblanadi. U Suqrotning shogirdi bo'lgan. "Tarbiya,-deydi, Platon davlat tomonidan tashkil etilmog'i va hukmron guruhlarining –faylasuflar v jangchilarning manfaatlarini qo'llamog'i lozim". Bu fikrning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ideal davlat qurishda fuqarolarning tarbiyasi muhim rol o'ynashini tushunsak bo'ladi.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning fikricha, tarbiyaning uch bosqichi, ya'ni uch vazifasi bor:

1. O'zini va tevarak – atrofdagi olamni bilish (aqliy tarbiya)
2. O'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya)
3. Xudoni tanish (diniy tarbiya)

Komenskiy zamonaviy pedagogika asoschilaridan biri bo'lib, ta'limning hamma uchun teng imkoniyatda bo'lishini targ'ib qilgan, kim qanday bo'lishidan qat'iy nazar hammaga bir xil bilim berish kerakligi, ya'ni tabaqalashtirmalikning tarafdori edi. U o'zining "Buyuk didaktika" asarida ham ta'limni tizimli, bosqichma-bosqich va izchil tarzda tashkil etish zarurligini isbotlab berdi.

Xulosa qilib aytganda, G‘arb faylasuflari ta’lim jarayonida insonni mustaqil va erkin fikrlashga, amaliy tajribaga va axloqiy qadriyatlarga chaqirganlar.

Umumiy olganda, Sharq va G‘arb allomalari qarashlarida turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, ularni yagona maqsad insonni komil qilib tarbiyalash va jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shish g‘oyasi birlashtirib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
2. A. Navoiy “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
3. Comenius, Johann Amos. The Great Didactic. New York: Russell & Russell, 1967.
4. Qodirov A., Jo‘raev, N. va boshqalar. “Pedagogika tarixi” Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015.
5. N.P. Jumaboyev “Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy va axloqiy qarashlari” Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021.
6. Xajiyeva M. “Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari”. Avtoreferat. — Toshkent, 2004.
7. Shoxadjayev M. “Burxoniddin Marg‘inoniyining axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari”. Avtoreferat. — Toshkent, 2006.
8. M.T. Nurbayeva “Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy oflayn-onlayn anjumani.